



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



O'ZBEK TILIDA TASVIRIY IFODALARNING KOGNITIV MEXANIZMI THE COGNITIVE MECHANISM OF FIGURATIVE EXPRESSIONS IN UZBEK

Utegenova O'g'iloy Pardavayevna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs doktoranti

utegenovaugilo@gmail.com

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026./YTUJ1885

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasviriy ifodaning shakl va zaminda ifodalanishi, idrok, tasavvur, xotirada tasviriy ifodaning qayta ishlanishi, yuzaga chiqishi, zamindagi lingvomadaniy bilimning aks etishi haqida so'z boradi. O'zbek tilida tasviriy ifodaning qayta ishlanishi, yuzaga chiqishida subyektning bilimiga tayanilishi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv mexanizm, tasviriy ifoda, foregrounding(shakl va zamin), paradigma tushunchasi, konsept, kognitiv bilim, lingvomadaniy jihat.*

Annotation. *The article discusses the expression of the periphrasis in terms of figure and ground, as well as perception, imagination, memory, the processing and emergence of periphrasis and the reflection of lingvocultural knowledge in the ground. In Uzbek, it describes how periphrasis is perceived, processed and emerges, emphasizing reliance on the subject's knowledge.*

Keywords: *cognitive mechanism, periphrase, figure and ground, concept, cognitive knowledge, paradigm, cultural aspect.*


O'zbek tilida tasviriy ifoda o'xshatish, ko'chim, bog'liqlik asosida yuzaga keladi. Ikkilamchi nom sifatida idrokning qayta ishlangan mahsulidir. Bugungi kunda tasviriy ifoda antroposentrik aspektda o'rganilishi dolzarb va zarurdir. Insonni o'rab turgan olam va odam haqidagi bilim inson idrokida yig'iladi, to'planadi va zaxiraga aylanadi. Tasviriy ifodada ko'zda tutilayotgan obyekt yoki subyekt, voqea-hodisani nafaqat ikkilamchi nomga aylantiradi, balki uning zaminida lingvomadaniy bilim, ma'lumot, millatga xos bo'lgan o'y-fikr aks etadi. Kognitiv tilshunoslikda tasviriy ifoda matn qurshovi, nutq vaziyati, nutq subyekt va nutq obyekt orqali tahlil qilinadi. Matndan ajratilgan holda tasvir birliklarini o'rganish va tahlil qilish ilmiy tomondan bir tomoni yoritib beriladi. Asl maqsad, ko'zlangan niyat oshkor bo'lmay qolishi mumkin. Ba'zi tasviriy ifodada so'zlovchi o'zi kutmagan hosila yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *aql gimnastikasi* tasviriy ifoda matematika, shaxmatga nisbatan ifodalangan ikkilamchi nom sifatida qabul qilingan. Ammo vaqt o'tgani sari aqlni charxlaydigan mashg'ulot, o'yin turlari ko'paydi. Bugun aql gimnastikasiga *mental*

arifmetika, neyrogimnastika hatto ba'zilar idrokida *topishmoq* ham aqlni charxlatuvchi vosita sifatida tan olinmoqda. Kognitiv mexanizm tasviriy ifodaning shakl va zamin munosabati asosiga qurilishi, uning serqirra ma'noga egaligini ko'rsatadi. Zamin tarkibida millatning o'y-fikri, dunyoqarashi, tajribasi, bilimi mujassamlashgan bo'ladi shu sabab zamin dinamik holatda harakatlanadi.

Antik davrdan boshlab tasviriy ifoda Aristotel, Kvintilian tomonidan qayd etilgan, mahalliy va sharqiy slavyan tilshunosligining ham diqqat markazida bo'lganligi, ilm-fan to'la rivojlanmagan davrlardan boshlab ushbu birlik talqin etilganligi manbalarda qayd etilgan [Achilov, 2021: 10]. Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik asoschilari Ch.Filmore, G.Lakoff, R.Langacker, L.Talmy, E.S.Kubryakova, N.Boldirev, V.Demyankovlardir [Ashurova, 2021: 10]. O'zbek tilshunoslari Sh.Safarov, D.Ashurova, N. Normurodova, DJ.Yusupov, M.Salieva, M.Panjiyeva ilmiy ishlarida kognitiv tilshunoslik bilan stilistik tomonlarini tadqiqotga tortgan. Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganishdir. Insonning bilish faoliyati “iz” lari, ya'ni kategorial tushuncha hamda turli ko'rinishdagi yuqori darajadagi tarkibli tuzilmalarning mantiqiy va lisoniy tizimlari haqidagi ma'lumotlar majmuasining to'planishidir. Bu ikki tizim o'rtasidagi aloqaning uzviyligi kategoriyalashtirish hodisasida yaqqol aks aks etadi [Safarov, 2006: 53]. Tasviriy ifodada inson ongida kechadigan jarayon va bilish faoliyatining mahsuli yuzaga keladi. Inson xotirasidagi “iz” lar to'plangan bilim, orttirilgan tajribadir. Umuman olganda, kognitiv tilshunoslik tildagi barcha birliklarni integratsiya yo'li orqali tadqiq qiladi, ilmiy asoslaydi. O'zbek tilshunosligida H.Shamsiddinov, I.Umirov, D.Aytboyevlarning nomzodlik ishlarida tasviriy ifodaning izohi, nomlanishi, hosil bo'lishi, til birligi va nutq birligiga mansubligi, yondosh hodisalarga munosabati haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan. H.Shamsiddinov tasviriy ifodani “semantik-funksional sinonimlar” qatoriga kiritadi [Shamsiddinov, 2007: 57].

Kognitiv tilshunoslikda shakl va zamin munosabati til birliklarining figura va fonda nimani aks etayotganini belgilaydi. J.Lakoffning fikriga ko'ra, konseptual metaforaning mohiyati bir maqsadni boshqa manba nuqtayi nazari orqali yoritishdan iborat [Lakoff and Johnson, 2003: 256]. Tasviriy ifoda shaklan metofara, metonimiya asosiga qurilsa-da, zaminida millatga xos bo'lgan madaniyat, dunyoqarash, idrok va ma'lumot aks etadi. Til birligiga aylangan tasviriy ifodalarda zamin dinamik holatda bo'ladi. Hamma uchun tushunarli, nutqda ko'p bor tilga olinadigan tasviriy ifoda yangilik kasb etmaydi. Masalan, oq oltin-paxta tasviriy ifodaligi hamma uchun tushunarli. Oq oltin shakl, zamin esa paxta. Zamin statik holatga kelib qolgan, lisonda o'rnashgan, ko'p bor qo'llangan, nutqda tayyor. *Aql gimnastikasi* tasviriy ifodasi

oldin matematika fanini ifodalasa, bugun bu tasviriy ifodaga bo'lgan qarash biroz o'zgardi. Aqlni charxlaydigan, fikrlashga undaydigan mantiqiy topshiriq turlari ham aql gimnastikasini anglatmoqda. Zamin ostida shaxsning chuqur bilimi, tasavvuri, idroki, hayotiy boshdan o'tkazgan tajribalar yotadi. Shuning uchun zamin dinamik harakatda bo'ladi. Bugun aql gimnastikasi zaminida mental arifmetika, shaxmat va ayrim shaxslar idrokida topishmoq gavdalanadi. **Bilim maskani** tasviriy ifodasi o'quvchilar uchun *maktab*, talabalar uchun *universitet*, kitobxonlar uchun *kutubxona* bo'lishi mumkin. Bilim maskani figura, zamin maktab, universitet, kutubxona. Zamin ostida yashiringan ma'lumot har bir shaxs tomonidan qayta idrok qilinadi, buning natijasida xulosa dinamik holatga o'tadi. Tildagi birlik nutqda ko'p bor qo'llanilsa, lisonda zaxira ombori sifatida saqlanadi. Kognitiv tilshunoslikda har bir til birligi individual shaxsda turlicha tus olishi haqida so'z boradi. Masalan, gul bir kishi uchun atirgul, boshqasi uchun atirgul, yana boshqasi uchun lola [Safarov, 2006: 16].



Inson xotirasida tasviriy ifoda shu xil ko'rinishda yonma-yon shaklda ikki xil manba bilan xotirada o'rnashishi mumkin. Idrok, xotira va tasavvur bilan bog'liq hodisa bo'lib, ba'zi shaxslarda *birinchi muallim* hayot, qiyinchilik, ota leksemalari kuzatiladi.

Umuman olganda, tasviriy ifoda kognitiv mexanizmi ko'p qirrali, o'zgaruvchan ayrimlari o'zgaras holga kelgan. Mexanizmni tashkil qiluvchi shakl, zamin, paradigma, kognitiv bilim, konseptlarning tarkibida ham subslotlar mavjud. Tasviriy ifoda insonlarning chuqur bilimi, hayotiy tajribasi asosida yuzaga keluvchi murakkab

til birligi deyish mumkin. Har bir zamindagi yashirin ma'no ortida o'sha millatga xos bo'lgan lingvomadaniy jihat, ma'no, tajriba yashaydi.

Adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Sangzor nashriyoti. Jizzax, 2006. – 16 b.
2. Shamsiddinov H. O'zbek tilida semantik-funksional sinonimlar. Toshkent, 2007. – 57 b.
3. Lakoff G and Johnson M. Metaphors we live by. The University of Chicago press. 2003. – 25 p.
4. Ashurova D. Cognitive linguistics. Tashkent, 2018. – 8 b.
5. Umirov I. Parafrazalarning badiiy asarlarda qo'llanilishiga doir. Toshkent, 1996. – 46 b.
6. I A O'razova Death” in Navoyi “Khamsa”/International Congress of Postgraduate Students from Altai to Anatolia. 2024. P. 28-30
7. Komilova, G. (2025). Paremiologik Birliklarda Qadriyatlar Ierarxiyasining Aks Etishi. Modern Science And Research, 4(5). Retrieved From <https://Inlibrary.Uz/Index.Php/Science-Research/Article/View/102978>
8. Muhammadiyeva D. “Boburnoma” Lug'atlarining Leksikografik Talqini. Vol. 3 No. 3 (2025): O'zbekiston: Til Va Madaniyat. Lingvistika.
9. Muhammadiyeva, D. Boburnoma” Ning O 'zbekcha-Turkcha-Qozoqcha Parallel Korpusini Yaratishda Tarjima Muammolari Translation Problems In Creating The Uzbek-Turkish-Kazakh Parallel Corpus Of “Boburnoma. Zahiriddin Muhammad Bobur Merosining Sharq Davlatchiligi Va Madaniyati Rivojida Tutgan O 'Rni, 190.
10. Shamsieva M. Experimental Study Of Speech Development In Bilingual Children. Academicia An International Multi Di Sci Pl I N Ary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) Doi: 10.5958/2249-7137.2021.01845.0 Issn: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8, August 2021 Impact Factor: Sjif 2021 = 7.492
11. Z Xolmanova [Sun'iy Intellekt: Boris](#) - Computer Linguistics: Problems, Solutions ..., 2023
12. X M. [«Qutadg'u bilig»dagi aforizmlar semantikasi](#) ЎзМУ хабарлари, 306-308
13. B Abdushukurov, L Sindorov The Phenomena Of Semantic Widening And Narrowing In “Hibatul-Hakayik” - THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE ..., 2020